

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SOLIYEVA UMIDA ALISHER QIZI

**BIZNES-SITI KONSEPSIYASINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA QURILISH
SOHASINING SANOAT SALOHIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Soliyeva Umida Alisher qizi

Biznes-siti konsepsiyasini rivojlantirish asosida qurilish sohasining sanoat salohiyatini takomillashtirish..... 3

Солиева Умида Алишер қизи

Совершенствование промышленного потенциала строительной отрасли на основе развития концепции бизнес-сити 23

Solieva Umida Alisher kizi

Improving the industrial potential of the construction sector based on the development of the business city concept..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 48

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SOLIYEVA UMIDA ALISHER QIZI

**BIZNES-SITI KONSEPSIYASINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA QURILISH
SOHASINING SANOAT SALOHIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Iqt5972 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nazarova Ra'no Rustamovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nazarova Fatima Hakimovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Saidov Mash'al Samadovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent arxitektura-qurulish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.23.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51, info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil " _F_ " _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil " _F_ " _____ -raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.E. Sindarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.S. Fayzullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

T.S. Qo'chqarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tizimining transformatsiyasi va jadal urbanizatsiya qurilish sanoati korxonalarini salohiyatini “biznes siti” konsepsiyasi asosida takomillashtirish bilan bog‘liq muammolarni qayta tikladi. Bu muammo tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, chunki tabiiy resurslar cheklanganligi, iqlim o‘zgarishi, ekologik tahdidlar kuchayishi va jamiyatning sifatga talabi o‘sishi, shuningdek, shahar atrof-muhitining xavfsizligi obyektiv ravishda tabiiy, energiya va suv resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek, antropogen yukni kamaytirish, energiya va resurslarni tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, innovatsion qurilish materiallari va qurilishning zamonaviy usullarini qo‘llash orqali erishiladigan barqaror infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan hududiy va sanoat rivojlanishining yangi modellariga aralashtirishni talab etadi.

Ekologik qurilish tendensiyalari bo‘yicha butunjahon tadqiqotiga ko‘ra, butun dunyo bo‘ylab qurilish kompaniyalarining qariyb 60 foizi ekologik qurilish loyihalarida ishtirok etadi¹. “Energetika va atrof-muhitni loyihalashda yetakchilik” (Leadership in Energy and Environmental Design, LEED) singari sertifikatlar qurilish kompaniyalariga energiyatejamkor va ekologik toza turar-joy va tijorat binolarini qurishga yordam beradi, shuningdek, soliq imtiyozlaridan tortib marketing imkoniyatlarigacha bo‘lgan bir qator afzalliklarni taqdim etadi.

“Biznes-siti” konsepsiyasidan foydalanish zarurati O‘zbekiston uchun ham dolzarb hisoblanadi. Mamlakat jadal urbanizatsiya bilan birga modernizatsiya yo‘lidan bormoqda va ekologik barqaror rivojlanish zarurligini anglamoqda. Yashil qurilish amaliyotiga o‘tish O‘zbekistonga energiya sarfini kamaytirish, havo sifatini yaxshilash va infratuzilmani yanada barqaror qilish imkonini beradi, bu esa mintaqadagi o‘zgaruvchan iqlim sharoitida ayniqsa muhimdir. Energiyatejovchi uylar nafaqat isitish va sovutish tizimlarini optimallashtirish, balki quyosh batareyalari, zamonaviy shamollatish tizimlari, issiqlik izolyatsiyasi va moslashuvchan texnologiyalardan foydalanishni ham o‘z ichiga oladi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi PF-5577-sonli “Qurilishni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-sonli “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 5-fevraldagi PQ-4586-sonli “Qurilish-montaj ishlari ishlab chiqarish sifatini tubdan oshirish va qurilishda nazorat tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-sonli “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiyatejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari

¹ Construction Market Drivers, Forecast Report 2025 – 2034 <https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/construction-global-market-report>

hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qurilishda "biznes siti"ni rivojlantirish va energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash asosida qurilish sohasining sanoat salohiyatini oshirishning turli jihatlarini xorijiy olimlar W.Chen, J.Wang, W.Sun, M.Miettinen, S.Heuser, W.Kronz, A.Sadeghi² ishlarida ko'rib chiqilgan.

Qurilish sanoati korxonalarini sanoat salohiyatining turli jihatlarini va qurilish korxonalarini innovatsion salohiyatini strategik boshqarish usullari D.V.Gusel'nikov, A.P.Pirojnikova, M.Ye.Tambovseva, V.P.Chernishev, N.G.Verstina, T.N.Kisel, K.Yu.Kulakov, N.F.Kolodina, I.V.Trofimov, A.A.Osipova, V.V.Repin, Yu.S.Artamonova, N.M.Belyanskaya, O.V.Shnayder, N.N.Fedulova³ singari olimlarning ishlarida ko'rib chiqilgan.

Qurilish korxonasining ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish masalalari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari M.S.Abdurashidova, X.T.Bo'riyev, I.A.Usmonov, U.B.G'iyosov, A.N.Jabriyev, E.B.Iskandarov, E.X.Maxmudov, I.E.Tursunov, D.R.Xayirova, O.D.Xamrakulova, M.K.Shodiboyeva⁴ ning ishlarida ko'rib chiqilgan.

² Chen, W., Wang, J., Sun, W. (2019). Cost-efficiency mechanism and game-action of inter-local governmental cooperation in the Yangtze River Delta Region. *Acta Geographica Sinica*, 74(02):312–322; Miettinen M., Heuser S., Kronz W., Sadeghi A. R., Asokan N. ConXsense: automated context classification for context-aware access control // *Proceedings of the 9th ACM symposium on Information, computer and communications security*. 2014. P. 293-304;

³ Гусельников Д. В. Повышение экономического потенциала строительного предприятия: дисс. канд. эконом. наук, Екатеринбург, 2015. - 130 с.; Пирожникова А.П. Организационно-техническое обеспечение использования возобновляемых источников энергии в малоэтажном жилищном строительстве: дисс. канд. техн.наук., Ростов-на-Дону, 2024. – 154 с.; Тамбовцева М.Е. Модель управления инновациями в сфере индивидуального строительства: дисс. канд. экон. наук, Москва, 2011. – 130 с.; Чернышев В.П. Управление разработкой проектов стратегических инноваций в строительстве: дисс. канд. экон. наук, М., 2011. – 150 с.; Верстина Н.Г., Кисель Т.Н., Кулаков К.Ю. Внедрение инновационных технологий на предприятиях инвестиционно-строительной сферы: проблемы и определяющие факторы//*Е-Магетеп* 2022. Т. 5, № 1. С. 4-13; Колодина Н.Ф., Трофимов И.В., Осипова А.А. Методика оценки производственного потенциала предприятий строительной индустрии//*Интернет журнал «Науковедение»* 2024. №5 (24). С. 1-9; Ребин, В.В. Процессный подход к управлению. Моделирование бизнес-процессов/ В.В. Ребин. – Москва: Стандарты и качество, 2014. - 408 с.; Управление потенциалом предприятий строительного комплекса: моногр. / Ю.С. Артамонова, Н.М. Белянская. – Пенза: ПГУАС, 2015. – 194 с. Шнайдер О.В., Федулова Н.Н. Основные пути повышения эффективности использования производственного потенциала предприятия // *Балканское научное обозрение*. 2017. № 1. С. 40-42

⁴ Абдурашидова М.С. Особенности финансирования инновационных проектов в Узбекистане // *Экономика и финансы (Узбекистан)*. 2020. С.152-158; Буриев Х.Т., Усманов И.А. Повышение качества строительства в Республике Узбекистан//*Россия: тенденции и перспективы развития*. 2022. №2. – С. 363-371; Гиёсов У.Б. Понятие производственного потенциала и основные виды ресурсов, применяемых в производстве//*Бюллетень науки и практики*. 2020. Т.3 №6. <https://www.bulletennauki.com>; Джабриев А. Н., Искандаров Э.Б. Основные положения формирования системы устойчивого инновационного развития строительной сферы // *Архитектура, строительство и дизайн, ТАСИ*. 2019. №2. С.11-16; Махмудов Э.Х. Экономика промышленных предприятий. – Ташкент, 2015. – 189 с.; Хаирова Д.Р. Роль и значение трудового потенциала в строительной отрасли в условиях модернизации экономики Узбекистана // *Бюллетень науки и практики*. 2020. – т.6 №3- С.314-319; Хамракулова О.Д. Концепция развития экономики Узбекистана как основной фактор устойчивого развития страны (риски и проблемы) // *Российская экономика: взгляд в будущее*. – 2020. – С. 185-193; Шодибоева М.К. Инвестиционная привлекательность Узбекистана // *Молодой ученый*. 2016. №10. С. 939-941.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi biznes-siti konsepsiyasini rivojlantirish asosida qurilish sohasining sanoat salohiyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qurilish sohasi sanoat salohiyatining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish;

qurilish korxonalarining innovatsion salohiyatini strategik boshqarish usullarini qo'llashni ko'rib chiqish;

biznes-sitini rivojlantirish asosida qurilish sohasining sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha ilg'or mamlakatlar tajribasini ko'rib chiqish;

qurilish sohasidagi zamonaviy salohiyat va ishlab chiqarish kuchlarini tahlil qilish;

qurilish korxonasining ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini tahlil qilish;

qurilish korxonasi ishlab chiqarish salohiyatining tarkibiy qismlarini baholash;

“biznes siti” konsepsiyasi doirasida innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha takliflar;

qurilishda barqaror rivojlanish texnologiyalaridan foydalanishni ishlab chiqish;

innovatsion omillarni hisobga olgan holda qurilish korxonalarining sanoat salohiyatini modellashtirish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasi qurilish sanoati hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti “biznes-siti” konsepsiyasini rivojlantirish asosida qurilish sohasining sanoat salohiyatini takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Ilmiy adabiyotlar tahlili, vertikal va gorizontaal tahlil, omilli tahlil, ko'p omilli regressiya usuli, korrelyatsion tahlil usuli.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra “korxonaning ishlab chiqarish salohiyati” tushunchasining iqtisodiy mazmuni qurilish tarmog'i korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatining yuqori moliyaviy natijalarini olishga yordam beruvchi innovatsiyalarni majburiy jalb qilish bilan bir qatorda turli xil resurslar va ishlab chiqarish omillarini birlashtirish va muvofiqlashtirishdan iborat sinergetik yondashuv jihatidan takomillashtirilgan;

qurilish tarmog'i korxonalarida kadrlar, moliyaviy, mulkiy salohiyatlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni innovatsion rivojlanish tendentsiyalari va bozor konyunkturasi tebranishlariga ko'ra differensiallash yordamida qurilish ishlari tannarxini pasaytirish orqali ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishning strategik imkoniyatlari asoslangan;

“biznes-siti” texnologiyasini qo'llash natijasida nisbatan barqaror qurilish muhiti ta'minlangan hududning ustuvorlik reytingiga ko'ra qurilish ishlarining energiya sig'imi va tarmoqning rivojlanish darajasini kompleks baholash orqali binolarni

optimallashtirilgan va avtomatlashtirilgan energiya iste'moli tizimlari bilan jihozlash taklifi asoslangan;

O'zbekistonda qurilish tarmog'i ishlab chiqarish salohiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'p omilli ekonometrik model bo'yicha inersion va optimistik rivojlanish ssenariylari asosida qurilish ishlari hajmining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ekonometrik modelni hisoblash amalga oshirilgan, natijada moliyaviy, mulkiy va kadrlar salohiyatining ishlab chiqarish salohiyati samaradorligiga ta'sirining miqdoriy darajasi DISCOVER INVEST uchun anqilangan;

DISCOVER INVEST yirik qurilish korxonasi ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligi tahlili, shu jumladan ishlab chiqarish salohiyatining har bir tarkibiy qismi: moliyaviy, mulkiy, kadrlar salohiyati samaradorligi tahlil qilingan;

tahlil natijalariga ko'ra, DISCOVER INVEST ishlab chiqarish salohiyatining tarkibiy qismlari o'rta darajada ekanligi aniqlangan, bu O'zbekiston qurilish korxonalarini elektron reytingida korxonaning reytingi bilan tasdiqlanadi;

"Biznes siti" konsepsiyasi doirasida O'zbekiston qurilish tashkilotlarida quyidagi innovatsion texnologiyalardan foydalanish taklif etilgan: BIM (Building Information Modeling), buyumlar interneti (IoT), katta ma'lumotlar va sun'iy intellekt texnologiyalari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, isitish, konditsionerlash, yoritish va elektr qurilmalarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari, qurilish maydonchasida robotlarni qo'llash, shuningdek, binolarning avtomatlashtirilgan energiya iste'moli tizimlaridan (BMS) foydalanish.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi korporativ boshqaruvni o'rganuvchi olimlarning ilmiy qarashlarini tanqidiy va qiyosiy tahlil qilish, tadqiqot jarayonida qo'llanilgan yondashuvlar metodologiyasining asoslanganligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari biznes-sitini rivojlantirish asosida qurilish sohasining sanoat salohiyatini takomillashtirishning nazariy va uslubiy apparatini rivojlantiradi va to'ldiradi.

Dissertatsiyada ko'rib chiqilgan qurilishda barqaror rivojlanish texnologiyalaridan foydalanish amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Biznes-siti" konsepsiyasini rivojlantirish asosida qurilish sohasining sanoat salohiyatini takomillashtirish bo'yicha dissertatsiya tadqiqotlari davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "korxonaning ishlab chiqarish salohiyati" tushunchasining iqtisodiy mazmunini qurilish tarmog'i korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatining yuqori moliyaviy natijalarini olishga yordam beruvchi innovatsiyalarni majburiy jalb qilish bilan bir qatorda turli xil resurslar va ishlab chiqarish omillarini birlashtirish va muvofiqlashtirishdan iborat sinergetik yondashuv jihatidan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy ishlanmalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2025-yil 11-noyabrda 465-sonli dalolatnomasi). Mazkur ilmiy taklifning joriy etilishi natijasida talabalarda turli resurslar, ishlab chiqarish omillari va innovatsiyalarni integratsiyalash hamda

muvofiqlashtirish jarayonlarini tahlil qilish, ularni baholash bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish, shuningdek, ishlab chiqarish tizimlarining moslashuvchanligini tushunish va boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati yaratilgan;

qurilish tarmog'i korxonalarida kadrlar, moliyaviy, mulkiy salohiyatlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni innovatsion rivojlanish tendentsiyalari va bozor konyunkturasining tebranishlariga ko'ra differensiallash yordamida qurilish ishlari tannarxini pasaytirish orqali ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishning strategik imkoniyatlarini aniqlash bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 14-noyabrdagi 34-06/13312-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish korxonalarida qurilish ishlari tannarxining oldingi hisobot davriga nisbatan o'rtacha 12 foizga kamayishi kuzatilgan;

"biznes-siti" texnologiyasini qo'llash natijasida nisbatan barqaror qurilish muhiti ta'minlangan hududning ustuvorlik reytingiga ko'ra qurilish ishlarining energiya sig'imi va tarmoq rivojlanish darajasini kompleks baholash orqali binolarni optimallashtirilgan va avtomatlashtirilgan energiya iste'moli tizimlari bilan jihozlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan qurilish kompaniyalari subyektlari faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 14-noyabrdagi 34-06/13312-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida "biznes-siti" qurilish texnologiyasini qo'llagan holda optimallashtirilgan va avtomatlashtirilgan energiya iste'moli tizimlari (BMS) bilan jihozlash imkoniyati yaratilgan, bu esa an'anaviy energiya iste'moli usuliga nisbatan har bir binoning energiya iste'molini 15 foizga kamaytirish imkonini bergan;

O'zbekistonda qurilish tarmog'i ishlab chiqarish salohiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'p omilli ekonometrik model bo'yicha inersion va optimistik rivojlanish ssenariylari asosida qurilish ishlari hajmining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 14-noyabrdagi 34-06/13312-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning joriy etilishi qurilish tarmog'ini uzoq muddatli rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini asoslash va investitsiya siyosati yo'nalishlarini belgilash imkonini bergan, bu esa O'zbekistonda qurilish ishlari hajmining o'tgan hisobot davriga nisbatan o'rtacha 14,2 foizga o'sishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda hamda 4 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda tezislarda chop etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, 44 ta rasm, 32 ta jadval, 1 ta ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qurilish sohasi salohiyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy jihatlari”** deb nomlangan birinchi bobida sohaning sanoat salohiyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan, qurilish korxonalarining innovatsion rivojlanishini strategik boshqarish usullarini qo‘llashga yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. “Biznes-siti” konsepsiyasini amalga oshirish asosida qurilish sohasining sanoat salohiyatini oshirish bo‘yicha ilg‘or mamlakatlar tajribasini umumlashtirishga alohida e‘tibor qaratilgan, bu esa sohani modernizatsiya qilish va rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlarini asoslash imkonini berdi.

Iqtisodiy adabiyotlarda “salohiyat” kategoriyasi turlicha talqin qilinadi, bu esa uni tushunishga yagona yondashuvni shakllantirishni qiyinlashtiradi. Bu atama lotincha *potentia* – kuch so‘zidan olingan bo‘lib, iqtisodiy natijalarga erishish uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan resurslar, imkoniyatlar va vositalar to‘plamini aks ettiradi. Tadqiqotchilar uning mazmunini turlicha yoritib beradilar: ba‘zilar korxonaning faoliyatini ta‘minlovchi moddiy-texnik baza, mehnat va xomashyo resurslariga, boshqalari esa salohiyatning dinamik xususiyatiga va undan foydalanish jarayonida uning o‘sishi zarurligiga e‘tibor qaratadilar.



1-rasm. Innovatsion ishlab chiqarishda biznes jarayonlarini taqsimlash variantlari⁵

⁵ Muallif ishlanmasi.

V.V.Repinning fikriga ko‘ra, “biznes jarayonlarini tashkil etishga resurs yondashuvining mohiyati quyidagicha: har bir innovatsion loyiha biznes jarayoni uchun bir nechta turdagi resurslar: moddiy, ishlab chiqarish va inson resurslarini yaratadi”⁶.

Biznes-jarayonning har bir obyektiga uchun tegishli resurslar to‘plamini yaratish yoki sotib olish zarur. Ularni ishlab chiqarish doirasida taqsimlashning mumkin bo‘lgan variantlari ma‘lum sabablarga bog‘liq (1-rasm). Bu biznes jarayonlarida boshqaruvchi tizimlar sifatida menejerlar (odamlar) ham, axborot tizimlari ham ishtirok etishi mumkin. M.V.Savinaning fikricha, “biznes-jarayon – turli xil faoliyat turlarining yig‘indisi bo‘lib, uning doirasida “kirishda” bir yoki bir nechta turdagi resurslardan foydalaniladi va bu faoliyat natijasida “chiqishda” iste‘molchi uchun qiymatga ega bo‘lgan mahsulot yaratiladi”⁷.

Demak, nafaqat korxonada tashqi muhitning holati va o‘zgarishiga bog‘liq, balki o‘z navbatida, korxonada faoliyati jarayonida tashqi muhitga bilvosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Yu.T. Mansurovaning fikricha, “faqat jarayonga yo‘naltirilgan boshqaruvga ega korxonalarda rivojlanishning innovatsion turini amalga oshirish mumkin, chunki innovatsion biznes g‘oyani o‘z vaqtida amalga oshirish va joriy etish uchun moslashuvchanlik va tashqi va ichki o‘zgarishlarga tezkor javob berishning yetarli darajasi zarur”⁸. Innovatsion salohiyatni strategik boshqarish korxonaning tashqi va ichki innovatsion maqsadlarini korxonada ixtiyorida mavjud jarayon va moddiy resurslar bilan bog‘lash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston qurilish korxonalarining zamonaviy sanoat salohiyati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida qurilish sohasidagi ishlab chiqarish kuchlari va salohiyatining holati kompleks tavsiflangan, ulardan bozor iqtisodiyoti sharoitida foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan. Qurilish korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligi baholanib, uning rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi asosiy tarkibiy qismlar va omillar aniqlangan, shuningdek, sohaning raqobatbardoshligini oshirish zaxiralari belgilangan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston qurilish sanoati mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda “qurilish faoliyatiga ixtisoslashgan 54223 ta korxonada va tashkilot ro‘yxatdan o‘tgan. Qurilish kompaniyalari konsentratsiyasi bo‘yicha respublika poytaxti – Toshkent shahri yetakchi bo‘lib, u yerda 12200 ta korxonada to‘plangan, bu mamlakatdagi umumiy sonning 22,5 foizini tashkil etadi”⁹.

Tarmoqning yuqori o‘shirish sur‘atlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrda PF-6119-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga


⁶ Репин, В.В. Процессный подход к управлению. Моделирование бизнес-процессов/ В.В. Репин. – Москва: Стандарты и качество, 2014, с.59

⁷ Савина М.В. Особенности формирования производственного потенциала предприятий в эпоху цифровизации / М.В. Савина, А.А. Степанов // Социальная политика и социология. 2020. Т. 19, № 1 (134). с. 13

⁸ Mansurova Y.T. Innovatsion biznes jarayonlarni hisobga olgan holda korxonani innovatsion rivojlantirish tizimini shakllantirish masalasi. / Ю.Т. Мансурова, А.В. Старцева / Информационные и математические технологии в науке и управлении. – 2023. – № 1(29). – с. 138


⁹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi <https://stat.uz/uz/ofitsialnaya-statistika/construction>

mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida belgilangan chora-tadbirlar bilan izohlanadi. 2-rasmdan ko'rinib turibdiki, 2024-yilda qurilish ishlab chiqarish hajmi 2023-yilga nisbatan 8,8 % ga, 2020-yilga nisbatan 1,9 barobarga va 2010-yilga nisbatan 20,5 barobarga oshgan.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlab chiqarish hajmining o'sish dinamikasi, mlrd. so'm¹⁰

O'zbekiston qurilish sohasida ishlovchilar soni uning rivojlanishiga, qurilish loyihalarini amalga oshirish sifati va samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi (3-rasm).



3-rasm. O'zbekistonda qurilishda ishlovchilarning o'rtacha yillik sonining o'sish dinamikasi, kishi¹¹

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan <https://stat.uz/uz/ofitsialnaya-statistika/construction>

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan <https://stat.uz/uz/ofitsialnaya-statistika/construction>

2- va 3-rasmlarni taqqoslab ta'kidlash joizki, qurilish sohasida band bo'lganlar sonining o'rtacha yillik o'sishi har yili 8-10 %ga o'sib bormoqda (2022-yilda pasayish kuzatilgan) va qurilish hajmining o'sishidan sezilarli darajada orqada qolmoqda. Qurilish korxonalari yangi texnologiyalar yoki yanada samarali ish usullarini joriy etishlari esa ularga kam resurslar bilan ko'proq natijalarga erishish imkonini beradi, yangi qurilish materiallari va texnologiyalari joriy etiladi, bu esa qurilish muddatini qisqartirish va ish sifatini oshirish imkonini beradi. Biroq qurilish sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligi mavjud bo'lib, bu mutaxassislarni kasbiy tayyorlash tizimida kamchiliklar mavjudligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston qurilish tarmog'ining ishlab chiqarish kuchlari turli xil qurilish ishlari, shuningdek, qurilish materiallari ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi ko'plab korxonalarni o'z ichiga oladi. Ta'kidlash kerakki, qurilish sohasining jadal rivojlanishi deyarli hamma zarur qurilish materiallari O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilishi tufayli amalga oshmoqda.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida qurilish texnikasini sotish hajmi¹²

| Ko'rsatkichlar | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2023-y. | 2024-y. |
|-------------------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Avtokranlar, dona | 952 | 500 | 420 | 404 | 590 | 640 |
| Avtobetonqorgichlar, dona | 690 | 326 | 300 | 264 | 600 | 700 |
| Avtogreyderlar, dona | 1005 | 655 | 620 | 582 | 680 | 730 |
| Minorali kranlar, dona | 874 | 245 | 250 | 250 | 350 | 410 |
| Buldozerlar, dona | 856 | 480 | 450 | 420 | 460 | 480 |
| Yuklagichlar, dona | 1055 | 700 | 700 | 650 | 980 | 900 |
| Ekskavatorlar, dona | 1244 | 731 | 596 | 264 | 524 | 625 |
| Jami | 6676 | 3637 | 3336 | 2834 | 4184 | 4485 |
| O'tgan yilga nisbatan dinamikasi, % | | -45,5 | -8,3 | -15,0 | 47,6 | 8,0 |

2023-yilda qurilish texnikasi savdosi sezilarli darajada tiklangan – o'tgan yilga nisbatan sotuvlar hajmi oshishi 56,8 %ni tashkil etgan. Biroq bu ko'rsatkich inqirozdan oldingi 2019-yil darajasiga yetmadi, bu esa yangi iqtisodiy zarbalar bo'lmagan taqdirda O'zbekistonda yaqin yillarda qurilish texnikasi savdosi hajmi yanada oshish salohiyatini ko'rsatadi.

O'zbekiston bozorida asosiy ulushni xorijdan keltirilgan texnikalar egallaydi. Hozirgi kunda yetakchi yetkazib beruvchi Xitoy bo'lib, Rossiya va Belarusdan texnika yetkazib berish o'rniga Janubiy Koreyadan katta miqdorda yetkazib berilmoqda. Ta'kidlash joizki, yangi qurilish texnikasi qurilish sanoati salohiyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Asosiy kapitalga kiritilgan

¹² Muallif tomonidan https://businessstat.ru/images/construction_machinery_uzbekistan ma'lumotlari asosida tuzilgan.

investitsiyalar qurilish tashkilotlarining ishlab chiqarish faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rib chiqish lozim.

O'zbekiston hukumati tomonidan belgilangan maqsadlarga erishishda tarmoq korxonalari asosiy fondlarining holati muhim ahamiyatga ega. Asosiy fondlar korxonalarining ishlab chiqarish quvvati darajasi, ularning texnik jihozlanganlik darajasi, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, mahsulot tannarxi hamda olingan moliyaviy natijaga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda turar-joy binolaridan tashqari, biznes-markazlar, ofis binolari, savdo markazlari, omborxonalar va boshqa tijorat ko'chmas mulk obyektlari qurilmoqda. Noturar joy binolarini qurishga ixtisoslashgan qurilish tashkilotlarining asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalari hajmi 2024-yilda 2018-yilga nisbatan 2,5 barobarga oshgan. O'zbekiston Respublikasida ko'plab boshqa obyektlar (yo'llar, ko'priklar, transport uzellari) amalga oshirilmoqda, buning uchun asosiy kapitalga investitsiyalar zarur. Bunday obyektlar qurilishiga investitsiyalar hajmi 2024-yilda 2018-yildagi ko'rsatkichlarga nisbatan 2 barobarga oshgan.

Korxonaning asosiy fondlarini boshqarishda to'g'ri investitsiya siyosati asosiy o'ringa ega, chunki uning asosida qurilish korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatining tarkibiy qismi sifatida qurilish tashkilotlarining asosiy fondlarini modernizatsiya qilish, almashtirish yoki ta'mirlash to'g'risida qarorlar qabul qilinadi. Qurilish sohasidagi zamonaviy salohiyatni tahlil qilish uchun muallif tomonidan O'zbekistonda qurilish hajmi ishlab chiqarish salohiyatining tarkibiy qismlari: sohada ishlayotganlar soni, qurilish korxonalarining asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalar hajmi, sotib olingan qurilish texnikalari soniga bog'liqligini o'rganuvchi regressiv-korreksion tahlil modeli ishlab chiqilgan.

Natijaviy ko'rsatkich: U – O'zbekistonda qurilish hajmi, mlrd. so'm.

Natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillar:

X_1 – O'zbekiston qurilishida ishlovchilar soni, ming kishi.

X_2 – qurilish korxonalarining asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm.

X_3 – sotib olingan qurilish texnikasi soni, dona.

2-jadval

Ekonometrik model uchun ko'rsatkichlar¹³

| Model elementlari | 2016-y. | 2017-y. | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2023-y. | 2024-y. |
|-------------------|---------|---------|---------|---------|---------|----------|----------|----------|---------|
| U | 29413,9 | 34698 | 51129,3 | 71156,5 | 88130,3 | 107492,7 | 130790,9 | 150792,6 | 164061 |
| X_1 | 193,8 | 197,1 | 223,6 | 276,5 | 307,6 | 352,8 | 333,4 | 354,8 | 390,3 |
| X_2 | 65445,2 | 70550,1 | 72554,3 | 77178,7 | 88412,5 | 111036,1 | 131802,7 | 156429,7 | 160234 |
| X_3 | 4571 | 5014 | 6544 | 6676 | 3637 | 3336 | 2834 | 4184 | 4485 |

Hisob-kitoblar Stata14 dasturi yordamida amalga oshirilgan (4-rasm).

¹³ Muallif ishlanmasi.

| Source | SS | df | MS | Number of obs | = | 9 |
|----------|------------|----|------------|---------------|---|--------|
| Model | 1.9538e+10 | 3 | 6.5127e+09 | F(3, 5) | = | 184.46 |
| Residual | 176529772 | 5 | 35305954.5 | Prob > F | = | 0.0000 |
| Total | 1.9714e+10 | 8 | 2.4643e+09 | R-squared | = | 0.9910 |
| | | | | Adj R-squared | = | 0.9857 |
| | | | | Root MSE | = | 5941.9 |

| var1 | Coef. | Std. Err. | t | P> t | [95% Conf. Interval] |
|-------|-----------|-----------|-------|-------|----------------------|
| var2 | .3418265 | .0619367 | 5.52 | 0.003 | .182613 .50104 |
| var4 | 1.075557 | 1.859052 | 0.58 | 0.588 | -3.703288 5.854402 |
| var6 | .0073996 | .1126213 | 6.01 | 0.002 | .3878974 .9669019 |
| _cons | -83881.01 | 16337.7 | -5.13 | 0.004 | -125878.4 -41883.62 |

4-rasm. Stata 14 dasturida hisoblash natijalari¹⁴

Bu modelda modellashtirish bilan bog‘liq hamma qoidalar bajarilgan. Ko‘rinib turganidek, $R^2=0,9910$, ya‘ni hisoblangan va statistik ma‘lumotlar o‘rtasida farq yo‘q. Amalga oshirilgan hisob-kitoblar quyidagi ko‘p omilli regressiya tenglamasini olishga yordam berdi:

$$y = 0,3418x_1 + 1,0755x_2 + 0,0073x_3 \quad (1)$$

(1) tenglamadan natijaviy ko‘rsatkich u ga ta‘sir etuvchi omillarni quyidagicha talqin qilish mumkin:

- O‘zbekistonda qurilishda ishlovchilar soni 1 ming kishiga ohsa, qurilish ishlari hajmi 0,3418 mlrd. so‘mga oshadi;

- qurilish korxonalarining asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1 mlrd. so‘mga ohsa, O‘zbekiston Respublikasida qurilish ishlari hajmi 1,0755 mlrd. so‘mga oshadi;

- yangi qurilish texnikasi soni 1 birlikka oshganda qurilish ishlari hajmi 0,0073 mlrd. so‘mga oshadi.

Olingan natijalar qurilish tarmog‘iga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini yuqori darajada saqlab turish, ishlab chiqarishni kengaytirish va ishchilar sonini oshirish, yangi qurilish texnikalari sonini ko‘paytirish muhimligini ko‘rsatadi. Bu omillar qurilishda ishlab chiqarish kuchlari va mamlakat qurilish tarmog‘ining ishlab chiqarish salohiyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash O‘zbekiston qurilish tarmog‘ining ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Yangi qurilish texnologiyalari, energiya tejash sohasidagi innovatsiyalar, ekologik xavfsizlik va aqlli uylar konsepsiyasi bozor e‘tiborini tortuvchi asosiy yo‘nalishlarga aylanadi.

Muvozanatlashgan ko‘rsatkichlar tizimi (BSC) nuqtayi nazaridan korxonaning ishlab chiqarish salohiyati quyidagi jihatlar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi (3-jadval). 3-jadvalda DISCOVER INVEST kompaniyasining salohiyatini har bir tarkibiy qismi darajasini muvozanatlashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimi yordamida amalga oshirilgan baholashning yakuniy natijalari keltirilgan.

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

Korxonada ishlab chiqarish salohiyatining tarkibiy qismlari (BSC tizimi)¹⁵

| Ko'rsatkich | Mundarija |
|--|--|
| Moliyaviy ko'rsatkichlar | |
| Rentabellik | Rentabellik ko'rsatkichlarini baholash |
| Aylanma mablag'lar | Ishlab chiqarish jarayonida aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini baholash |
| Ishlab chiqarish xarajatlari | Ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish va optimallashtirish choralari |
| Daromad | Ishlab chiqarish faoliyatidan olingan yalpi va sof foydani baholash |
| Mijozlar | |
| Mijozlarning qoniqishi | Mijozlarning qurilish ishlari sifatidan qoniqish darajasini baholash |
| Bozor ulushi | Korxonaning raqobatchilarga nisbatan bozordagi mavqei |
| Xizmat | Xizmat darajasi, mijozlar so'rovlariga munosabat |
| Ichki biznes-jarayonlar | |
| Ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligi | Mehnat unumdorligini, avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash darajasini baholash |
| Sifatni boshqarish | Sifat nazorati va brakni minimallashtirish tizimlarini baholash |
| Innovatsiyalar | Ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasini baholash |
| Logistika | Resurslarni yetkazib berish va taqsimlashning maqbulligini baholash |
| Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish | |
| Xodimlar malakasi | Xodimlarning tayyorgarlik darajasi va malakasini baholash |
| Xodimlarni o'qitish | Xodimlarni yangi texnologiyalar va ish usullariga o'rgatish darajasi |

Dissertatsiya tadqiqoti davomida DISCOVER INVEST kompaniyasining ishlab chiqarish salohiyatini baholash ichki biznes-jarayonlar, mijozlar, kadrlarni o'qitish va rivojlantirish kabi boshqaruv quyi tizimlarida yuqori darajadagi salohiyat mavjudligini ko'rsatadi. Moliya kichik tizimida sezilarli darajada orqada qolish kuzatilmoqda, bu yerda aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligining pastligi yuqori ishlab chiqarish xarajatlari va moliyaviy natija pasayishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston qurilish korxonalarining sanoat salohiyatini “Biznes siti” konsepsiyasi asosida takomillashtirish yo‘llari”** uchinchi bobida qurilish sohasini rivojlantirishning innovatsion yo‘nalishlarini asoslash keltirilgan. Biznes siti konsepsiyasi doirasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan, qurilishda barqaror rivojlanish tamoyillarini qo‘llash imkoniyatlari yoritib berilgan, shuningdek, innovatsion omillarni hisobga olgan holda qurilish korxonalarining sanoat salohiyatini modellashtirish taklif etilgan.

“Biznes-siti” texnologiyasi bo‘yicha qurilish hududida atrof-muhitning alohida tarkibiy qismlarining ekologik holatini kompleks baholash uchun eng barqaror qurilish mumkin bo‘lgan hududning ustuvorlik reytingidan foydalanish taklif etilgan:

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

$$P_i = \sum_j^j Q_{ij} \cdot R_{ij}, \quad (2)$$

bu yerda P_i – matritsa satri; Q_{ij} – matritsa elementi (hudud-omil); R_{ij} – matritsa elementi (energiyaning faktor turi);

Energiya turlari: quyosh, shamol, kichik gidroelektrostansiyalar omil sifatida xizmat qiladi. Berilgan matritsaning optimal variantini chiziqli optimallashtirish usuli (simpleks usul) bilan tanlash hisobi 4-jadvalda keltirilgan.

Har bir ko‘rsatkichni inersion va optimistik ssenariylarga nisbatan tahlil qilish lozim. Shunday qilib, inersion ssenariyda, agar hozirgi vaqtda qurilish sohasida amal qilayotgan tendensiyalar saqlanib qolsa, 2030-yilda qurilish ishlari hajmi 198744 mlrd. so‘mni tashkil etadi.

Optimistik ssenariy amalga oshirilganda, O‘zbekiston hukumati tomonidan ko‘zda tutilgan maqsadli ko‘rsatkichlar bajarilganda qurilish ishlari hajmi 375441 mlrd. so‘mni tashkil etadi. Optimistik ssenariyda qurilish ishlari hajmi inersion ssenariyga nisbatan 1,89 martaga oshadi.

Qurilishda innovatsion texnologiyalar quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- jarayonlarni avtomatlashtirish va ilg‘or usullarni qo‘llash orqali qurilish muddatlarini qisqartirish;

- aniqroq loyiha yechimlari va zamonaviy materiallardan foydalanish orqali qurilish ishlari sifatini oshirish.

4-jadval

Mezonlarni normallashtirishni hisoblash¹⁶

| Variantlar (strategiyalar) | Mintaqa | 1-mezon | 2-mezon | 3-mezon |
|----------------------------|-------------------------------|----------------------|--------------------|--------------------|
| F1 | Andijon viloyati | 13387/13387 = 1. | 1530/2050 = 0,7463 | 0/1500 = 0 |
| F2 | Namangan viloyati | 9200/13387 = 0,6872 | 1550/2050 = 0,7561 | 0/1500 = 0 |
| F3 | Farg‘ona viloyati | 4820/13387 = 0,3601. | 1500/2050 = 0,7317 | 0/1500 = 0 |
| F4 | Toshkent viloyati | 10650/13387 = 0,7955 | 1940/2050 = 0,9463 | 500/1500 = 0,3333 |
| F5 | Qashqadaryo viloyati | 3470/13387 = 0,2592 | 1900/2050 = 0,9268 | 0/1500 = 0 |
| F6 | Surxondaryo viloyati | 5320/13387 = 0,3974 | 1950/2050 = 0,9512 | 0/1500 = 0 |
| F7 | Samarqand viloyati | 5130/13387 = 0,3832 | 1950/2050 = 0,9512 | 0/1500 = 0 |
| F8 | Buxoro viloyati | 5130/13387 = 0,3832 | 1900/2050 = 0,9268 | 500/1500 = 0,3333 |
